

“SO’Z TARKIBI”NI O’TISHDA GRAMMATIK O’YINLARDAN FOYDALANISH

Isaqova Bibimashrab Shokirjon qizi

*Prezident ta’lim muassasasi agentlik tizimidagi chinoz tumani ixtisoslashtilrilgan maktab
ma’naviy-marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari*

So’z tarkibini o’rganish bo’limida so’zning tarkibiy qismlari, ya’ni morfemalar o’rganiladi. So’zning eng kichik, boshqa ma’noli bo’laklarga bo’linmaydigan qismi **morfema** deyiladi. Morfemika bo’limi **so’z tarkibi** deb ham ataladi.

So’zlarning eng kichik ma’noli qismlarini o’rganuvchi tilshunoslik bo’limiga esa **morfemika** deyiladi.

So’z tarkibi doim ikki qismdan: **asos** va **qo’shimchalardan** iborat. Demak, so’zning ma’noli qismlari deyilganda asos va qo’shimchalar tushuniladi. So’zning ma’noli qismlari yig’indisi esa so’z tarkibi deb nomlanadi. So’z tarkibida asos asosiy qism ma’noni ifodalaydi, qo’shimchalar esa bu ma’nolarni o’zgartirishga xizmat qiladi.

So’zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo’llana oladigan, atash ma’nosiga ega bo’lgan qism **asos** deyiladi.

Asos topishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Asos mustaqil, atash ma’nosini anglatishi lozim
2. Asos ma’lum bir so’roqqa javob bo’lishi lozim
3. Asos boshqa mayda bo’lakka bo’linmasligi kerak
4. Asos o’zi orqali yasalgan so’zdan ma’no jihatdan uzoqlashmasligi kerak

5-6-sinfda “So’z tarkibi”ni o’qitishda o’zak, qo’shimcha, negiz haqidagi ma’lumotlarni puxta o’zlashtirishga yordam beradigan qiziqarli grammatik o’yinlardan foydalanish mumkin:

1. Domino o’yni. Har bir negizning oxiri qanday harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlanadigan negiz topib davom ettiriladi, masalan: *rejali, ishchi, ibratlì, intizomli, ilmli, ishla, aqilli, ishchan, notinch, chiziqsiz, zehnli*.

2. **“Yo’qolgan jangchini top” o’yni.** Bunda o’zakni shartli ravishda “jangchi” deb ataymiz. So’z yasovchi qo’shimchalar beriladi, o’quvchilar nuqtalar o’rniga “yo’qolgan jangchi”- o’zakni topib qo’yib yozish kerak. Bir vaqtning 4 nafar o’quvchi doskaga chiqariladi.

1) ...*kor*, ...*-la*, ...*-zor*, ...*-lik*

2) *ba..., be..., ser..., no...*

O’quvchilar quyidagi so’zlarni yozadilar: *paxtakor, oqla, uzumzor, do’stlik, badavlat, bexabar, serunum, noaniq*.

3. **“O’ylab top” o’yni.** Shunday so’z o’ylab topingki, bir xil bo’g’inning takrorlanishidan qo’shning nomini bildiradigan so’z bo’lsin (*bulbul*)

Bu o’ynni o’tkazishdan maqsad o’zbek tili mavzusini mustahkamlashdan iborat.

4. **“Savol- javob” tanlovi.** Bu o’ynni maktab partalararo uyushtirish mumkin. Birinchi partada o’tirgan o’quvchilar ikkinchi partada o’tirgan o’quvchilarga savol beradi. O’quvchilarning savol- javobi kuzatiladi. Javob berishda adashgan o’quvchilar 1 balldan mahrum bo’ladi.

Savol- javob quyidagicha bo’lishi mumkin:

Savol: Birinchi harflaridan Navoiy so’zi hosil bo’ladigan shahar nomlarini bilasizmi?

Javob: Nukus, Andijon, Varshava kabi

5.”O'zaklar galireyasi”o'yini. Bu o'yinini o'tkazishdan maqsad imlosi qiyin o'zaklarni xotiraga saqlash, uyning imlosiga diqqatni jalg qilishdan iborat. O'quvchilar ko'pincha y,ng,h,x harfli o'zaklarda xatoga yo'l qo'yadilar. O'yin orqali imlosi qiyin bo'lgan so'zlarni puxta o'zlashtirib olishlari mimkin. Har bir o'yinda 4 nafar o'quvchi ishtirot etadi. Topilgan so'z quyidagi shaklda yozib boriladi:

b		t		a	k
	a	i	r		
s	i	y	r	a	k
	i	r	r		
z		a		o	
		k			q

Bu topshiriq quyidagicha berilishi ham mumkin:

Negizning 1- bo'g'ini y undoshi bilan tugagan so'zlar topib yozing.

6. “So'zlar zanjiri” tuzish. Bunda o'qituvchi quyidagi kabi so'zlarni ko'chma doskaga yozib, darsga olib kiradi, har bir so'zning oxiri qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so'z yozishni topshiradi.

Bahramand, tekis, albom, intizor, yirtqich, maktab, davomat, sekin, muzey, namuna, chiroyli, obod, ma'no

O'quvchilar qaysi so'zdan keyin qaysinisi boshlanishini aniqlab yozadilar. Natijada *bahramand, tekis, albom, intizor, yirtqich, maktab, davomat, sekin, muzey, namuna, chiroyli, obod, ma'no* kabi so'zlar zanjiri hosil bo'ladi.

7. So'zlarni sinonimini toping. Bunda so'zlar tarqatma qog'ozlarga yozilgan bo'ladi. Topilgan sinonim so'zlarni o'quvchilar daftarlariغا yozib boradilar. Bunda quyidagi kabi so'zlarning sinonimini toptirish mumkin: *go'zal, osoyishta, uzun, el*.

8. Berilgan so'z yasovchi qo'shimchalar bilan negiz yasang. Bunda o'quvchilar nuqtalar o'rniiga zarur tub so'z qo'yib yozadilar.

chi	chi
...	obod
noma	...
dor	xona
chilik	

9. Quyidagi so'zlarning ma'nolarini tushuntiring.

Bur- bo'r, suz- so'z, tuz- tus, kuz-ko'z, kuy- quy.

5-sinflarda so'z yasovchi qo'shimchalarni o'rgatishga yetarlicha dars soatlari ajratilgan. 1-darsda eng avvalo, dars tashkil etilib, o'tilgan mavzu “O'zak” yuzasidan uyga berilgan topshiriq bir necha o'quvchidan so'ralgach, darslikda berilgan “qo'shimcha” mavzusida kuzatish uchun berilgan material asosida o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi. Shundan keyin boshlang'ich sinflarda qaysi so'z yasovchi qo'shimchalar o'tilganligini eslash maqsadida quyidagi savollarga javob olinadi:

1. So'z tarkibi deganda nima tushunasiz?

2. *Gulla, gulchi* so'zlarining o'zagini va so'z yasovchi qo'shimchasini ko'rsating

3. ***ba-, be, ser-*** so'zimizning qo'shimchalaridan so'zlar hosil qiling.

4. ***Do'stlarimizni*** so'zining tarkibini aniqlang.

5.-jon, -xon, -chi, -dor qo'shimchalarini so'zga qo'shing va ularning ma'nolarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushuntiring.

O'quvchilarning javoblari asosida so'z yasovchi qo'shimchaning ta'rifi tushuntiriladi:

O'zakka qo'shilib yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Masalan: ***binokor, paxtakor*** so'zlari o'zakka ***-kor, -zor*** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasalgan.

So'zning quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar bir necha o'quvchiga o'qitiladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar ***ba-, be-, ser-, no-, -chi, -zor, -loq-, iston, -chan, -li, -la, -g'ich, -xon.***

Shu qo'shimchalar bilan yasalgan so'zlarga misollar keltirish talab etiladi. Sundan keyin yangi mavzuni mustahkamlashga kirishiladi.

O'quvchilar so'z tarkibi haqida nazariy jihatdan bo'lsa-da, o'z tushunchalari asosida tasnif qila oladi, shundan darslikda berilgan nazariy ma'lumot tushuntiriladi. Bu orqali o'quvchilarga zaruriy bilimlar o'zlarining tushunchalari orqali beriladi, natijada o'quvchi ham bilimini mustahkamlaydi va yangi bilimga ega bo'ladi, shundan so'ng mavzuga oid mashqlar bajariladi.

1-topshiriq

Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Bu so'zlar uchun umumiy bo'lgan qismni ajrating.

Suvchi, ishchi, omborchi, traktorchi, kombaynchi

Yuqoridagi mashqni tahlil qilamiz: ***Suv+chi, ish+chi, ombor+chi, traktor+chi, kombayn+chi.*** Bu so'zlar uchun umumiy bo'lgan qism ***-chi*** qismidir. Bu qism qo'shimcha sanaladi.

1-mashq.

So'zlarning tarkibini aniqlang. Bir necha so'zda takrorlanib kelayotgan qismlarni toping

Xabardor, ilmli, ilmsiz, xabarsiz, ilmiy, ulug'vor, bexabar, beilm, ulug'lamoq, ilmparvar, ulug'verlik.

Yuqoridagi mashqni tahlil qilamiz:

- 1) xabar+dor, xabar+siz, be+xabar
- 2) ilm+li, ilm+siz, ilm+iy, be+ilm, ilm+parvar.
- 3) ulug'+vor+lik. ulug'+vor ,ulug'+la+moq.

Yuqoridagilardan birinchi qatordagilar uchun ***xabar***, ikkinchi qatordigilar uchun ***ilm***, uchinchi qatordagilar uchun ***ulug'*** so'zları umumiy qism hisoblanadi.

2-mashq

Nuqtalar o'miga kerakli qo'shimchalarni qo'ying, so'zlarning ma'nosida bo'layotgan o'zgarishlarni izohlang. O'zbek tilimning jahondagi o'mi haqida fikrlashing.

Yaponiyalik Komastu til... olim sanaladi. U Osaka chet til... institutinining fors tili... bo'limini bitirgan. O'zbek tili... mustaqil o'rgangan. O'zbek tilini chuqur o'rganish maqsadida 1976-1981-yillar mobayni... O'zbek...ga to'rt marta safar qilgan. O'zbek tili bo'yicha "Oson o'zbek tili" asarini va "O'zbek...-yaponcha lug'at"ni nashr qil...gan. Konatsu o'zbek tilini Yaponiyada targ'ib qilayot... fidoyi olimlar... biridir. (E. Umarov)

Yuqoridagi mashqni tahlil qilamiz:

Yaponiyalik Komastu tilshunos olim sanaladi. U Osaka chet **tillar** institutinining fors tilini bo'limini bitirgan. O'zbek tilini mustaqil o'rgangan. O'zbek tilini chuqur o'rganish maqsadida 1976-1981-yillar mobaynida **O'zbekistonga** to'rt marta safar qilgan. O'zbek tili bo'yicha "Oson o'zbek tili" asarini va "O'zbekcha-yaponcha lug'at"ni nashr **qildirgan**. Konatsu o'zbek tilini Yaponiyada targ'ib qilayotgap fidoyi olimlardan biridir.(E. Umarov)

So'ngra, **intizom, odob, qalam** so'zlariga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shib yasama so'z hosil qilish mashq qilinadi. O'quvchilar **intizomli, intizomsiz, odobli, odobsiz, qalamdon** kabi so'zlarni topadilar.

Intizomli, intizomsiz, odobli, odobsiz, qalamdon so'zlarini qatnashtirib 4 ta yoyiq gap tuzish topshirig'i beriladi. O'quvchilarning yozgan gaplari o'qitish orqali tekshiriladi.

Ushbu mavzuni o'zlashtirishda quyida usullardan ham foydalanish mumkin:

Jumladan, o'quvchilarni bilimini tekshirish maqsadida lug'at diktantlar yozdirib, so'z yasovchi qo'shimchalar tagiga chizdirish. Masalan: **ilmli, ovchi, baquvvat, noaniq, mehnatkash, paxtakor, boshla, ozodlik, siyohdon, serunum, qalamdon, harakatchan** kabi.

Bir necha o'quvchi yozgan so'zlarini o'qib, so'z yasovchi qo'shimchalarni aytib beradi. So'ngra uyga berilgan vazifalar tekshiriladi. Berilgan so'zga qanday qo'shimcha qo'shib so'z yasalgani va so'z yasovchi qo'shimchaning ta'rifi so'raladi.

3-mashq

Ikki guruhga bo'lining. Birinchi guruh gap, ikkinchi guruh suv, so'zini asos qilib olsin va "Kim eng ko'p so'z topa oladi?" musobaqasini o'tkazing.

Namuna: yog', yog'li, yog'siz, yog'la, seryog'...

Yuqoridagi mashqni tahlil qilamiz:

1-guruh: *gap, gapdon, gapir, gaplash, sergap, gapsiz...*

2-guruh: *suv, suvdon, suvchi, suvli, suvsiz, sersuv, suvsat, suvla...;*

O't, o'tloq, o'tla, o'ta, o'tsiz, sero't, o'tzor, o'tli...

O'quvchilar bilan darsni mustahkamlash uchun savol- javob asosida suhbat o'tkazilgach, o'qituvchi suhbatni yakunlaydi:

O'zakka qo'shilib yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi.

UYGA VAIFA. 4-mashq

-lik, -zor, -iston, -la, -siz qo'shimchalari yordamida so'zlar yasang, ular ishtirotida gaplar tuzing.

Uyga vazifani tekshirish tahlili:

Avval o'quvchilarning daftarlari yig'ib olinadi va bir- biriga almashtirib tarqatiladi, keyin uy vazifasi o'qituvchi tomonidan bajariladi, bolalar esa o'zlarining bilimlari asosida tekshirib olishadi. Lekin xatoni to'g'ri, to'g'rini xato tekshirib qo'yishimumkin bo'lgan bilim saviyasi pastroq bolalarning yonidagi daftarni o'qituvchi oldiga borib o'zi qaytadan ko'zdan kechiradi va to'g'ri noto'g'ri ekanligini hammaning oldida aytildi.

Uyga vazifa tahlili:

Shahar+lik, gul+zor, o'zbek+iston, gul+la, suv+siz...

1.Biznikiga shaharlik o'rtog'im keldi.

2.Ukam gulzordan gul terdi.

3.O'zbekiston- go'zal diyor.

4.Daraxtlar gulladi.

5.Suvsiz yerlar obod bo'ldi.

Shu tarzda mashqlar bajarilgach, rasmli ko'rgazma qurollari ko'rsatiladi va shu ko'rgazma qurollari va tarqatma materiallari asosida darslar mustahkamlanadi. Rasmli ko'rgazma qurollari yordamida rasmda nimalarni ko'rayotganimi so'zlash, shu rasmga qarab gap tuzish, tuzilgan gaplardagi so'zlarning o'zagini ajratish kabi ishlar bajariladi.

Xulosa qilib shu aytish joizki, dars davomida xilma- xil ko'rgazmali quollardan foydalanish, yangi- yangi usullar bilan mavzuni tushuntirish natijasida o'quvchilar faolligi ortadi va darsning qiziqarli, samarali va sifatli o'tilishiga erishiladi.Ona tili darslarida o'z o'rnila grammatik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularning puxta bilim olishlariga yordam beradi.